

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.04.2021.B.79.01 ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**KUBLANOV JALGASBAY JUMABAYEVICH**

**OROL DENGIZI QURIGAN TUBI DINAMIKASINING TUZ  
PARAMETRLARINI MIQDORIY BAHOLASH**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus -2023**

**Falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Kublanov Jalgasbay Jumabaevich**

Orol dengizi qurigan tubi dinamikasining tuz parametrlarini miqdoriy baholash.....3

**Кубланов Жалгасбай Жумабаевич**

Количественная оценка солевого параметра динамики осушенного дна Аральского моря.....21

**Kublanov Jalgasbay Jumabaevich**

Quantitative assessment of the salt parameter of the dynamics of the drained bottom of the Aral Sea .....39

**E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....42

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.04.2021.B.79.01 ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOQ TABIIY FANLAR ILMIY TADQIQOT INSTITUTI**

**KUBLANOV JALGASBAY JUMABAYEVICH**

**OROL DENGIZI QURIGAN TUBI DINAMIKASINING TUZ  
PARAMETRLARINI MIQDORIY BAHOLASH**

**03.00.10 – Ekologiya**

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Nukus -2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/B526 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash ved-sahifasi ([www.aknuk.uz](http://www.aknuk.uz)) va «Ziyo Net» Axborot ta'lim tarmog'iga ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tleumuratova Bibigul Saribayevna**

Fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy hodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Ajiev Alisher Baxtibaevich**

Biologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Murodov Shuxrat Odilovich**

Texnika fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot:**

**Xorazm Ma'mun akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.04.2021.B.79.01 Ilmiy kengashning 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230100, Nukus shahri, Berdaq shox ko'chasi 41, institut kichik majlislar zali. Tel: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, faks: (+99861) 222-17-44, e-mail: [aknuk@mail.uz](mailto:aknuk@mail.uz))

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "\_\_\_" \_\_\_ da tarqatildi.

(2023 yil "\_\_\_" dagi \_\_\_ raqamli bayonnomasi)

**Mambetullaeva Svetlana Mirzamuratovna**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
b.f.d., professor

**Utemuratova Gulshirin Najimatdinovna**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f. PhD

**Matchanov Azat Taubaldiyevich**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida Orol dengizining qurishi zamonamizning eng yirik ekologik inqirozi sifatida tan olingan. Bu inqirozning eng xavfli oqibatlaridan biri bu Orol dengizining qurigan tubidan (ODQT) shamol ta'sirida tuzlarning tarqalishi (TT) bo'lib, bu axoli salomatligiga, tuproqning sho'rlanishiga, o'simlik qoplamiga va Orolbo'yi iqlimiga ta'sir qilmoqda. Ushbu sohada, Orol dengizining qurigan tubi, o'simlik qoplami va Orol dengizi suvining sho'rli o'rtasidagi tuzli bog'liqlikni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida Orol dengizining qurigan tubidan tarqalayotgan tuzlarning zararli oqibatlarini aniqlashga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada matematik modellashtirish yordamida tuzlarning tarqalish omillarining murakkab o'zaro bog'liqligini, Orol dengizi va qurigan tubi dinamikasining geosistemi va tuzlar tarqalishi uchun asos bo'lgan gidrokimyoviy va eol jarayonlarining hududiy-vaqt dinamikasini tizimli o'rganish muhim ustuvorlik kasb etmoqda.

Respublikamizda Janubiy Orolbo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilash, tuzlar tarqalishining turli jihatlarini o'rganish, olingan natijalardan Janubiy Orolbo'yidagi ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy – tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida<sup>1</sup> «...atrof-muhit holatiga zarar etkazadigan muammolarning oldini olish» vazifasi belgilab berilgan. Bu o'rinda, o'simliklarning tabiiy o'sishi va fitomelioratsiya omillarini o'rganish, Orol dengizining qurigan tubidan tarqalayotgan tuzlarning miqdorini kamaytirishda ekilayotgan o'simlik qoplamining, Kokaral to'g'onining suv o'tkazgichlari, kollektorlar va sun'iy ravishda sug'oriladigan suv havzalari kabi ijobiy texno-antropogen ta'sirlarning samaradorlik darajasini miqdoriy baholash iqtisodiy talabdan muhim va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi PQ-4947-sonli “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida” gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-sentabrdagi “Suv ob'ektlarini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” gi PQ-3286-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi “Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF-5742-con farmoni, “Atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863 -son qarori, “O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish” to'g'risida, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishdga mazkur tadqiqot ishi muayan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli « O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida» Farmoni.

**Mavzuning respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamiznin turli hududlarida Orol dengizi suv tubining qurigan yerlarining sho'rlanishi, tuproq shor'lanishining fitotsenozga ta'sirini, shamol ta'sirida tuzlarning tarqalishini o'rganishda mahalliy olimlardan Rafikov A.A. (1982, 1981), Kabulov S.K. (1985, 1990), Tolkacheva G.A. (1995,1998, 2000), Tleumuratova B.S. (2004, 2018), Mavlonova T.E. va boshqalar. (1998), Kurbaniyazov A.K. (2017), Shomuradov X.F. va Adilov B.A. (2015), Shomuradov X.F. va boshqalar. (2015), Sherimbetov S.G. (2015), Razzkov R.M. va Qosnazarov K.A. (1987, 1998), Duxovniy V.A. va boshqalar.(2007, 2008), Novitskiy Z.B. (2007, 2008, 2017, 2018) va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari mutaxassislaridan Zonn I.S va Glyants I.X. (2008), Zavilov P.O. va boshqalar. (2012), Gerasimova I.P. (1985, 1990), Nekrasova T.F. (1979), Bogdanova N.M. va Kostyuchenko V.P. (1977, 1978, 1979, 1981), Dimeeva L.A. va boshqalar, (2009, 2013), Grigoreva A.A. (1985, 1987), Semenova O.E. (1972), Kuznetsov N.T. (1986) va boshqa olimlar tomonidan bir qator yirik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda Miclin P. (1988, 2007, 2010, 2016, 2014), Banks, J. va boshq. (2022), Duan Z. va boshq., (2022), Ge Y va boshq. (2022), Huili He va boshq. (2022), Jin, Q va boshq., (2017), Wu, N va boshq. (2022), Yang X. va boshq. (2020), Weahler T.A., Dietrich S.E. (2017), Opp C va boshq. (2017), Breckle S.W., Wucherer, W. (2012), McDermid S.S., Winter, J. (2017), Yang X. va boshq. (2020), Lu H., Shao Y. (2001) va boshqa olimlar izlanish olib borganlar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Qoraqalpoq tabiiy fanlar ilmiy – tadqiqot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-392103042 «Respublika iqlimining isishiga olib keladigan Janubiy Orolbo'yi cho'llanish zonalarida ekologik va meteorologik jarayonlarni modellashtirish» (2022-2023-yillar) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Orol dengizi qurigan tubi dinamikasining tuz parametrini miqdoriy baholashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Orol dengizi suvining sho'rliigi, Orol dengizi qurigan tubining sho'rlanishi va tuzlarning tarqalishi o'rtasidagi bog'liqlik dinamikasini miqdoriy baholash;

aerodinamik aspektida Orol dengizining qurigan tubi o'simlik qoplami va tuzlarning tarqalishi o'rtasidagi tuzlarning qayta taqsimlanishi bilan bog'liq o'z-aro ta'sir dinamikasini miqdoriy baholash va aniqlash;

“Orol 61+” geosistemasi tarkibiy qismlarining hududiy-vaqt dinamikasi diagnostikasini yaratish va 2030 yil uchun prognoz qilish.

Orolning qurigan tubining ekologik holatiga ijobiy antropogen ta'sirlarning (Kokaral to'g'oni, suv havzalari, o'rmonzorlar ekish) samaradorligini miqdoriy baholash.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida yaxlit holdagi dinamik «Orol 61+» geotizimni tashkil etuvchi Orol dengizi, qurigan tubi va Orol dengizi qurigan tubidagi o'simlik qoplami olingan.

**Tadqiqotning predmeti** «Orol 61+» geotizimi komponentlari dinamikasining 1961-2020 yillar davrida tuzlarning gidrokimyoviy va eollik qayta taqsimlanishi aspektida o'z-aro bog'liqligi hisoblanadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiya ishida matematik modellashtirish usullari, statistik va tizimli tahlil (model hisob-kitoblari), tizimli ekologiya (atrof muhit ob'ektlarini monitoring qilish), axborot texnologiyalari (IpSquare dasturlari, MS EXCEL va yerni masofadan zondlash ma'lumotlari) usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

birinchi marotaba Orol dengizi, qurigan tubi, fitotsenozlar va ular orasidagi tuz almashinuvi jarayonlari yagona geostruktura sifatida modellashtirish va tizimni tahlil qilish usullari bilan aniqlangan;

Orol dengizining qurigan tubi o'simlik qoplaminin evolyutsiyasi qonuniyatlari tuproqning sho'rlanishi va tuzlarning tarqalishiga bog'liqligi aniqlangan;

tuzlarning shamol ta'sirida tarqalishiga o'simlik qoplaminin umumiy proektiv qoplamiga bog'liq holda ta'sirini miqdoriy baholash usuli ishlab chiqilgan;

Orol dengizining qurigan tubiga antropogen ta'sirlarning samaradorligini baholash usuli ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

aniqlangan o'simlik qoplaminin umumiy proektiv qoplamasi (UPQ) Orol dengizining qurigan tubidagi tuzlarning tarqalishiga dinamik bog'liqligini hisobga olgan holda o'rmonzorlarning unib chiqish omillari tuzilishini aniqlash usullari ishlab chiqilgan;

«Orol 61+» geosistemasida tuzlarni qayta taqsimlash jarayonlarini diagnostika qilish va prognoz qilish uchun modellar tizimi ishlab chiqilgan.

Orol dengizi qurigan tubida tuzlarning tarqalishidan kerakli himoya darajasiga o'rmonzorlar uchun UPQ hisob-kitoblari ishlab chiqilgan;

tuzli chang bo'ronlaridan keyin Orol dengizi suvining sho'rlanishini o'lchashdagi xatoliklarni miqdoriy baholash usullari ishlab chiqilgan;

Orol dengizining qurigan tubidagi ekologik sharoitlarni yaxshilashda texno-antropogen ta'sirlarning samaradorligini miqdoriy baholash usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tizimli ekologiyasining asosiy qoidalariga rioya qilinganligi, ko'rib chiqilayotgan jarayonlarning raqamli modellarini amalga oshirish asosida olingan regressiya tenglamalaridan foydalanganligi, modellashtirish asosida olingan ma'lumotlarning boshqa mualliflarning faktik va adabiy ma'lumotlari bilan muvofiqligi, xorijiy indekslangan nashrlarda nashr etilganligi, natijalarning amaliyotga tadbiiq etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Orol dengizi va uning qurigan tubi geosistemasida tuzlarning qayta taqsimlanishining ko'p yillik dinamikasining asosiy

qonuniyatlari aniqlanganligi va ushbu qonuniyatlarni miqdoriy baholanganligi bilan izohlanadi. O'rganilgan jarayonlar dinamikasining aniqlangan qonuniyatlari Orol va qurigan tub geosistemi rivojlanishini ilmiy prognoz qilish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarning Orolning qurigan tubidan tuzlarning tarqalishi bilan bog'liq jarayonlarning tizimligini miqdoriy baholashda, ushbu jarayonni zaiflashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning to'g'ri korrelyatsiyasi va muvofiqlashtirilishini ta'minlashda, ayniqsa dissertatsiyada geosistemaning tabiiy evolyutsiyasi qonuniyatlari antropogen aralashuviz o'rganib chiqilganligi sababli, ijobiy antropogen ta'sirlarning (Kokaral to'g'oni, suv havzalari, o'rmon ekish) samaradorligini miqdoriy jihatdan baholashda qo'llanilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Orol dengizining qurigan tubi dinamikasining tuz parametrini miqdoriy baholash bo'yicha olingan natijalar asosida:

Orol dengizining qurigan tubida tuzlarning tarqalishi va o'simlik qoplami o'rtasidagi bog'liqlikni miqdoriy baholashning ishlab chiqilgan usullari Qoraqalpog'iston Respublikasi ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining Janubiy Orolbo'yi mintaqasining ekologik xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishda joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining 2022 yil 25 yanvardagi 02-220-son ma'lumotnomasi). Natijada, Orol dengizi qurishining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishning raqamli ko'rsatkichli imkoniyatini yaratgan;

o'simlik qoplaminin hududiy vaqt bo'yicha taqsimlanish dinamikasi va ekologik xususiyatlari bo'yicha olingan ma'lumotlardan Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rmon xo'jaligi qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasining 2022 yil 22 iyuldagi 2-443-son ma'lumotnomasi). Natijada, Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar ekish tadbirlarini rejalashtirish samaradorligini oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusida jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 11 tasi O'zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shu jumladan 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya 109 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublikaning fan va


texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Kontseptualizatsiya va tadqiqot usullari**" deb nomlanuvchi birinchi bobi tadqiqot ob'ekti, predmeti va tadqiqot usullarini batafsil tavsiflashga bag'ishlangan. Birinchi bo'limda tadqiqotning usullari keltirilgan bo'lib, ularning asosiylari ekotizim yondashuvi va matematik modellashtirish hisoblanadi.

Modellarni ishlab chiqishda B. S. Tleumuratova (2018) ishidagi raqamli modellashtirish natijalari regressiyasining qayta tahlili qo'llanilgan.

Ikkinchi bo'limda o'rganilayotgan tadqiqot ob'ekti umumiy geofizik tavsifi berilgan.

Uchinchi bo'limda "Orol 61+" geosistemasining tuzilishi, uning tarkibiy qismlari (Orol dengizi, qurigan tubi va ODQT ning o'simlik qoplami) yig'indisi va tuzlarning gidrokimyoviy va eol qayta taqsimlanishiga oid o'zaro bog'liqligi aks etgan (1.1-rasm).



**1.1-Rasm. "Orol 61+" geosistemasining o'rganilayotgan jarayonlarining fizik realligi sxemasi**

Izoh: 1-dengiz, 2-tuproq, 3-o'simlik qoplami, 4-sho'r qoplamalar, 5-yer osti suvlari, 6-yer osti suvlaridan tuzlarning kapillyar ko'tarilishi;

Modelda "Orol-61+" geosistemasining tarkibiy qismlari mavhum ob'ektlar sifatida taqdim etiladi:

- 1) Orol dengizi (O) – umumiy akvatoriya maydoni va suvning sho'rlik darajasi;
- 2) ODQT yoki qurigan tubi (QT) – tuproqning sho'rlanishi va tuzlarning tarqalishi (TT);
- 3) O'simlik qoplami (O'Q) – turlarning farqlanuvissiz umumiy proektiv qoplamasi (UPQ).

Tuzlarning qayta taqsimlanishi, tarqalishi, yoki M. A. Orlova aytib o'tgani kabi ularning migratsiyasi "Orol 61+" geotizimida gidrokimyoviy va eol jarayonlarining murakkab o'zaro bog'lanishi bilan amalga oshiriladi, ularning omillari suv va shamoldir.

ODQT dagi tuzlarning tarqalishi Orol dengizi qurishi va suvining sho'rlanish darajasining oshishi oqibati hisoblanadi. ( $O \rightarrow QT$  bog'liqligi). Boshqa tomondan, tuzlarning tarqalishi Orol akvatoriyasini kesib o'tar ekan, qurigan tubning sho'rlanishining asosiy omili hisoblanuvchi Orol suvining sho'rlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi ( $QT \rightarrow O$  bog'liqligi). Tuzlar tarqalishining yagona cheklovchi omili bu tabiiy o'simlik qoplami bo'lib, uning himoya funktsiyasi shamol tezligini kamaytirish va shu asosida tuzlar tarqalish miqdorini kamaytirishdan iborat. ( $O'Q \rightarrow QT$  bog'liqligi). O'z navbatida, ODQT sho'rlanishi va tuzlarning tarqalishi  $O'Q$  ga salbiy ta'sir ko'rsatadi ( $QT \rightarrow O'Q$  bog'liqligi).

Birinchi bobning to'rtinchi qismida o'rganilayotgan muammoning kontseptual modeli keltirilgan, ya'ni mavhumlashtirishda qabul qilingan vazifa va soddalashtirishning og'zaki tavsifi berilgan.

*Modellashtirish davri*-1961-2020 yillar-o'n yilliklarga bo'lingan (1961-1970, 1971-1980 va boshqalar. O'n yilliklar xronologiya bo'yicha raqamlangan: 1961-1970 yillar uchun  $N = 1$ , 1971-1980 yillar uchun  $N = 2$  va hakoza. Yillararo dinamikani hisobga olish uchun vaqt Orol tubining qurigan nuqtasi drenajlangan vaqt sifatida aniqlanadi ( $T = 1, 2, 3, \dots$ ), ya'ni bu nuqta quriganidan keyingi o'tgan yillar soni Orol dengizining ( $t$ ) quritish vaqti sifatida 1961 yildan hisoblab chiqiladi.

*Modellashtirish maydoni* Orol dengizining 1960 yildagi akvatoriyasi bo'lib, vertikal ravishda-chuqurligi 3 m va balandligi 2000 m.

Hududiy kvantlash modellashtirish davrining o'n yilliklarga bo'linishiga mos keladi: qurigan tub 1961-1970 yillarda, 1971-1980 yillarda va hakoza qurigan drenaj chiziqlarga bo'linadi.

«Orol 61+» geotizimining modeli har o'n yilligi uchun qurish jarayonining dastlabki 10 yilida alohida amalga oshirildi, keyin esa 1961-2020 yillar uchun umumiy dinamikaning qonuniyatlarini chiqarish va ushbu individual dasturlarning integratsiyasi amalga oshirildi.

1.1-rasmda tasvirlanganidek, chiziqli bo'lmagan «tuzli» umumiy o'z a'ro ta'sirlarni 2 bo'limga ajratish mumkin: « $O \leftrightarrow QT$ » va « $QT \leftrightarrow O'Q$ ».

Shunga ko'ra, "Orol 61+" modeli ikkita kichik modeldan iborat: Orol dengizi va uning qurigan tubi o'rtasidagi tuzlarning qayta taqsimlanishi bo'yicha o'zaro ta'sirlarning to'g'ridan-to'g'ri va teskari submodellari (qisqacha aytganda, « $O \leftrightarrow QT$ » modeli va ODQT va  $O'Q$  o'rtasidagi tuzlarning qayta taqsimlanishi bo'yicha o'zaro ta'sirlarning to'g'ridan-to'g'ri va teskari submodellari (qisqacha aytganda, « $QT \leftrightarrow O'Q$ » modeli).

Ikkinchi «**Orol dengizi suvining sho'rlanishi va QT sho'rlanishining o'zaro bog'liqligi**» bobida Orol dengizi va uning qurigan tubi o'rtasidagi tuzlarning qayta taqsimlanishi bo'yicha chiziqli bo'lmagan munosabatlarning ko'p yillik dinamikasi « $O \leftrightarrow QT$ » modeli va uni amalga oshirish natijalari keltirilgan. Chink quriqligi (g'arbiy sohil) va ODQT ning qolgan qismi orografiyada juda farq qilganligi sababli, modellashtirish ODQT ning g'arbiy (Chink qismi) va Sharqiy qismi uchun alohida amalga oshirilgan.

Birinchi bo'limda to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik modeli « $O \rightarrow QT$ » berilgan bo'lib, QT sho'rlanishini dengizning qurish funktsiyasi va suvning sho'rlanishining mos

ravishda oshishi sifatida tavsiflangan. Orol dengizining akvatoriyasi maydoni  $S_O(t)$  va Orolning g'arbiy qismi uchun  $ST_{G'}(t)$  va Orolning Sharqiy qismi uchun  $ST_{SH}(t)$  suv sho'rligi dinamikasi 1961-2020 yillar davri uchun haqiqiy ma'lumotlarga ko'ra qurilgan regressiya tenglamalari bilan tavsiflangan:

$$S_O(t) = 0,0003t^3 - 0,0268t^2 - 0,4531t + 66,799 \quad (2.1)$$

$$ST_{G'}(t) = 0,0021t^3 - 0,0045t^2 - 1,1141t + 16,078 \quad (2.2)$$

$$ST_{SH}(t) = -0,0008t^3 + 0,1186t^2 - 2,2109t + 16,478 \quad (2.3)$$

bu yerda  $t$  – Orol dengizi qurish vaqti.

$N$ -o'n yillikning  $T$ -yilida  $QT$  (kg/ga) ning yuqori yuzasida tuz to'planishi quyidagi formula bilan ifodalanadi.

$$S_{QT}(T, N) = S_{SALT}(T, N) + S_{SDB}(T, N) - 0,7V_A(T, N) \quad (2.4)$$

bu yerda  $S_{SALT}(T, N)$  – yer osti suvlaridan kapillyar oqim tufayli yuzaning sho'rlanish dinamikasi ( $g/m^2$ ),  $S_{SDB}(T, N)$  – qirg'oq chizig'ining chekinishi paytida suvda eruvchan tuzlarning depoziti,  $V_A(T, N)$  –  $N$  o'n yillikning bir yilida maydon birligidan tuzlarning tarqalishi.

$$S_{SALT}(t, T) = A(t)T^4 + B(t)T^3 + C(t)T^2 + D(t)T + E(t), \quad (2.5)$$

$$A(t) = -0,00001, B(t) = 0,00002t + 0,0007, C(t) = -0,0007t - 0,0146,$$

$$D(t) = 0,0116t + 0,0434, E(t) = 0,0419t + 0,094.$$

$$S_{SDB}(T, N) = \Delta C_1 = \frac{\Sigma S}{l_{AB}} = 0,5C_d h_d \cos \alpha \quad (2.6)$$

bu yerda  $C_d$  – hisoblanayotgan yildagi Orol dengizi suvining sho'rlik darajasi,  $h_d$  – dengiz sathining pasayishi,  $\alpha_i$  – quriyotgan yuza qismining burchagi.

$N$  o'n yillikning bir yilidagi maydon birligidan tuzlarning tarqalishi  $F$  manba quvvatining  $Te$  energik faol shamol tezligi (5 m/s dan ortiq) va davomiyligi (s/yil) ko'paytmasiga teng:

$$V_A(T, N) = F T_E \quad (2.7)$$

Manba quvvatini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$F = \frac{0,12C_H g \rho_s}{\rho} Q, \quad Q = \frac{c \rho u_*^3}{g} \left[ 1 - \left( \frac{u_{*kp}}{u_*} \right)^2 \right] \quad (2.8)$$

bu yerda  $Q$  – ifloslanish chiqimi,  $\rho$  – havo zichligi,  $\rho_s$  – tuz zarrachasi zichligi,  $p$  – deformatsiya bosimi,  $g$  – gravitatsion doimiylik,  $u_*$  – ishqalanish tezligi,  $c = 0,25 + 0,33W_g/u_*$  – Ouen koeffitsenti,  $d$  – zarra zichligi,  $u_{*kp}$  – kritik ishqalanish tezligi,  $C_H$  – tuproqning sirt qatlamlarining tuz tarkibiga qarab aniqlangan tuzlarning yer usti konsentratsiyasi.

Tuzli changning og'ir fraksiyasining katta qismi ( $\approx 30\%$ )  $QT$  maydonida to'planadi, bu  $V_A(T, N)$  uchun 0,7 koeffitsiyentini ifodalaydi.


Chink quriqligida tuzlarning shamol ta'sirida tarqalishi kuzatuv ma'lumotlariga, tuproq tarkibining kamroq sho'rlanishi tufayli ham ahamiyatga ega emas. Shu sababli  $QT$  ning g'arbiy qismi uchun tuproq sho'rlanishining  $t$  qurish vaqtiga bog'liqligi quyidagi funktsiya bilan ifodalanadi:

$$S_{QT}(N) = (0,11N^2 - 1,19N + 0,73)T + (-0,78N^2 + 28,86N - 11,49) \quad (2.9)$$

Ikkinchi bo'limda «**O**→**QT**» modelini amalga oshirish natijalari keltirilgan.  $QT$  tarkibiy qismlari dinamikasining sho'rlanish balansini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, modellashtirish davrida ushbu balansning asosiy tarkibiy qismi dengiz

regressiyasi davrida suvda eriydigan tuzlarning depoziti hisoblanadi, uning hissasi birinchi o'n yillikda 60% dan so'nggi o'n yillikda 90% gacha ortadi.


«O→QT» modelini amalga oshirishning asosiy natijasi – ODQT tuproq tarkibining sho'rlanishining suv tarkibining sho'rlanish darajasiga bog'liqligini miqdoriy baholash – (rasm.1) da aks ettirilgan va regressiya tenglamalari bilan ifodalangan.



1-rasm. OQT ning tuproqlarning sho'rlanish dinamikasining suvning sho'rlanish darajasiga bog'liqligi

OQT dan tuzlarning tarqalishiga suvning sho'rlanishining bilvosita ta'siri ushbu bog'liqlikning chiziqli emasligi sababli aniq ifodalash mumkin emas.

2-bobning ikkinchi bo'limida QT→O teskari ijobiy bog'liqligi ko'rib chiqilgan bo'lib, bu tuzlarning tarqalishining Orol dengizi suvining sho'rlanish darajasining oshishiga ta'sirini anglatadi. QT ning ikkinchi model xarakteristikasi-tuproqning sho'rlanishi Orol dengizining xususiyatlariga ta'sir qilmaydi, shu sababli ushbu jarayonda qatnashmaydi. Tuzlarning tarqalishi Orol akvatoriyasini kesib o'tar ekan, tuzlarning gravitatsiyaviy cho'kishi natijasida Orol suvining sho'rlanish darajasini oshiradi (2-rasm).




2-rasm. Janubi-g'arbiy (2008 y) (a) va Janubiy (2018 y) yo'nalishlarda (b) tuzli chang bo'ronlari

Suvning sho'rlanish darajasining ko'payishiga chang bo'ronidan keyingi va to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni QT→O ning qisqa muddatli ta'sirini baholash quyidagi rasmda keltirilgan. (3-rasm va 4-rasm)

Tuzlar tarqalishining uzoq muddatli ta'sirini baholash uchun lysak Ryaboshapko statistik modeli ishlatilgan.




Ayrim *Senecio noeanus*, *Lappula semiglabra*, *Horaninovia ulicina* o'simlik turlari suksessiyaning so'ngi yillarida paydo bo'lgan.



5-rasm. Psammoseriyadagi o'simliklar jamoalarining turlari


**Galoseriya.** Bu tuproq va yer osti suvlarining kuchli sho'rlanishi sharoitida yuzaga keladigan o'simliklarning rivojlanishi va suksessiyaning bu turi Orol dengizi sohilida eng keng tarqalgan (6-rasm). Proektiv qoplama dinamikasi: *Salicornia europaea* 30% dan 0,1% gacha, *Tamarix laxa* 0,2% dan 1,5% gacha, *T. hispida* 0,5 dan 2,0% gacha, *L. serriola* 0,2% dan 0,4% gacha, *S. Cynanchum sibiricum* 0,2% dan 1,0% gacha, *Atriplex pratovii* 0,1% dan 2,0% gacha, *Eremopyrum orientale* 0,2% dan 0,1% gacha, *Gypsophila perfoliana* 0,3% dan 0,2% gacha, *Atriplex sphaeromorpha* 0,2% dan 0,3% gacha, *Aehuropus littoralis* 0,2% dan 0,1% gacha, *Suaeda crassifolia* 0,2% dan 0,1% gacha, *Suaeda acuminata* 0,3% dan 0,1% gacha, *Kahdium fohatum* 0,1% dan 40% gacha, *Senecio noeanus* 8,0% dan 0,1% gacha, *Polygonum aviculare* 5,0 dan 0,1% gacha, *Lactuca tatarica* 8,0 dan 1,0% gacha, *Lycium ruthenicum* 0,5 dan 0,1% gacha, *Limonium otolepis* 0,5 dan 0,1% gacha, *Phragmites australis* 0,4 dan 0,1% gacha, *Frankenia hirsute* 0,2 dan 0,1% gacha, *Tamarix ramosissima* 0,5 dan 0,1% gacha, *Karelinia caspia* 0,3 dan 0,1% gacha, *Climacoptera aralensis* 2,0 dan 1,0% gacha, *Petrosimania triandra* 1,5 dan 0,1% gacha, *Salsola anustralis* 0,3 dan 0,1% gacha, *Halostachys belangeriana* 0,1% dan 15% gacha, *Climacoptera lanata* 0,1% dan 7% gacha, *Halocnemum srtobilaceum* 0,1% dan 40% gacha.



6-rasm. Galoseriyadagi o'simliklar jamoalarining turlari

**Potamoseriya.** Bu Orol dengizining qurigan tubida tamariks va derez jamoalari bo'lgan to'qay o'simliklarining shakllanishini tavsiflaydi (3.3-rasm). Proektiv qoplama dinamikasi: *Tamarix laxa* 60% dan 30% gacha, *Pragmites australis* 0,5% dan 2,0% gacha, *Salsola panilteni* 0,1% dan 1,0% gacha, *Coryspermum hyssoifolium* 0,1% dan 0,5% gacha, *Senesio noeanus* 3,0% dan 0,1% gacha, *Anisantha tectorum* 0,1% dan 1,0% gacha, *Calamagrostis dubia* 0,5% dan 2,0% gacha, *Calligonum crispatum* 0,1% dan 0,5% gacha, *Stipagrostis pennata* 2,0% dan 1,0% gacha, *Lactuca tatarica* 2,0% dan 1,0% gacha, *Atriplex pratovii* 0,3 dan 0,1% gacha, *Aeluropus littoralis* 5,0 dan 0,5% gacha, *Alhagi psedalhagi* 5,0 dan 0,5% gacha, *Lycium ruthenicum* 1,0% dan 15,0% gacha, *Cynanchum sibiricum* 0,1% dan 0,5% gacha, *Karelinia caspia* 1,0% dan 5,0% gacha, *Astragalus brachypus* 0,2% dan 0,5% gacha, *Eremospartum ahyllum* 0,1% dan 0,5% gacha, *Gypsophila perfoliate* 0,1% dan 0,5% gacha, *L.Serriola* 0,1% dan 0,5% gacha.

Ayrim *Tamarix hipida*, *Salsola nitraria*, *S.australis*, *Limonium otolepus*, *Glycyrrgiza glabra* o'simlik turlari suksessiyaning so'ngi yillarida paydo bo'lgan.



7-rasm. Potamoseriyadagi o'simliklar jamoalarining turlari

Turli o'n yilliklardagi qurish chegaralaridagi fitotsenozlarning proektiv qoplama dinamikasini sinchkovlik bilan tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, OQT dagi O'Q ning ko'p yillik dinamikasini tuz parametrlarga qarab o'rganishda turlarning farqisiz faqat umumiy proektiv qoplama (UPQ) bilan aniqlash mumkin. Ikki xil usuldagi hisob-kitob yuritildi:

1) Tuproqning sho'rlanishi  $S_{QT}$  OQT dagi fitotsenoz dinamikasiga ta'sir qiluvchi yagona omil sifatida qaralib, quyidagi tenglik qo'llanildi

$$\delta_f(T,t) = -0,0002(S_{QT})^3 + 0,0334(S_{QT})^2 - 2,0651 S_{QT} + 100 \quad (3.1)$$

2) shamol ta'sirida tuzlar tarqalishining  $V$  o'simliklarning ildiz qismini tuz zarralari bilan impulslash orqali o'simlik qoplama degradatsiyasiga ta'siri hisobga olinib quyidagi tenglamadan foydalangan holda ifodalangan.

$$\delta_f(T,t) = -0,0002(S_{HC})^3 + 0,0334(S_{HC})^2 - 2,0651 S_{HC} + 100 - \Delta \delta_f(V) \quad (3.2)$$

OQT ning g'arbiy va sharqiy qismlaridagi proektiv qoplama dinamikasining QT sho'rlanishiga bog'liqligi

$$G'.Q: \delta_f = -0,021 S_{HC}^2 - 1,562 S_{HC} + 75,713 \quad (3.3)$$

$$Sh.Q: \delta_f = 0,0199 S_{HC}^2 - 2,5978 S_{HC} + 80,389 \quad (3.4)$$

Orolning g'arbiy va sharqiy qismlaridagi proektiv qoplama dinamikasining TT bog'liqligi

$$\Delta\delta_f(V) = 7,5284\ln(V) + 1,9026 \quad (3.5)$$

$$\Delta\delta_f(V) = 8,5456\ln(V) - 3,76 \quad (3.6)$$

Umumiy hisobdan, modellashtirish shuni ko'rsatdiki, o'simlik qoplaminig ko'p yillik UPQ dinamikasi faktorlari tuproqning sho'rlanish (91%) va shamol ta'siridagi tuzlarning tarqalishidir (9%). Grafikda tasvirlangan tenglik trendi QT ning ushbu model xususiyatlarining O'Q dinamikasiga ta'sirini ifodalaydi, yani QT→O'Q bog'liqligi. OQT dagi UPQ bo'yicha modellashtirish natijalarini mavjud faktik ma'lumotlar bo'yicha ratifikatsiya qilish modelining adekvatlik realligini ko'rsatdi (o'rtacha farq 4,76%).

Ushbu bobning ikkinchi bo'limida o'simlik qoplaminig tuzlarning tarqalishiga ta'siri va uni amalga oshirish natijalari, ya'ni o'simlik qoplaminig Orolning qurigan tubidan shamol ta'sirida tuzlar tarqalishining zaiflashishi «O'Q→QT» modeli ko'rsatilgan. O'Q ning TT ga ta'siri, o'simlik qatlamidagi shamol tezligining pasayishi natijasida tuzlar manbainig quvvati  $\Delta F$  pasayishi bilan belgilanadi.

O'simlik qoplama natijasida shamolning zaiflashish darajasini hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi.

$$u_r = 0,83\delta_f c_{Hh}^{0,5} u_a + (1 - \delta_f) u_a \quad (3.7)$$

bu yerda  $u_a$ —shamolning dastlabki tezligi,  $c_{Hh}$ — o'simlik qatlamining yuqori chegarasidagi issiqlik uzatish koeffitsienti -0,023 Vt/m.K.

(3.7) formula yordamida  $\Delta F = F(u_a) - F(u_r)$  ni hisoblab pastki yuzaning changlanish kuchining pasayishi miqdorini aniqlaymiz (mg/s m<sup>2</sup>).  $\Delta F$  ni changli bo'ronning davomiyligi  $T_B$  (o'rtacha 7 soat) ga ko'paytirib, chang bo'ronining bir holatida, bitta chang bo'roni paytida o'simlik qatlamining maydon birligida UPQ  $\delta_f$  ga bog'liqli  $\Delta V$  ning kamayishini miqdoriga ega bo'lamiz:

$$\Delta V(T_B) = T_B \Delta F \quad (3.8)$$

N-o'n yillikning T-yilida O'Q ning tuzlar tarqalishining susayishiga yillik ta'siri quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta V_y(N, T) = \Delta F(N, T) T_E(N, T) S_{QT}(N, T) \quad (3.9)$$

bu yerda  $T_E(N, T)$  – N -o'n yillikning t-yilida qurigan maydonning energik faol shamol tezligining yillik vaqti.

$$\Delta V_{ich} = -1,8885\delta_f^2 + 4,9113\delta_f + 0,0127 \quad (3.10)$$

$$\Delta V_y = -0,2657\delta_f^3 - 4,4956\delta_f^2 + 19,953\delta_f - 15,467 \quad (3.11)$$

3.10 va 3.11 tenglik regressiyalari - bu «O'Q→QT»- o'simlik qoplaminig tuzlarning tarqalishiga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlikning yashirin shaklida izlanadigan analitik ifodasi hisoblanadi.

**««Orol 61+» geotizimi modeli sintezi va geosistemaning rivojlanish tendentsiyasi»** deb nomlanuvchi to'rtinchi bobida natijalar keltirilgan. Unda «Orol 61+» modelini sintez qilish algoritmi, uni amalga oshirish natijalari, 2030 yil uchun ishlab chiqilgan usul va prognoz berilgan. «Orol-61+» modelining analitik tavsifi sintezi «QT↔O'Q» va «O↔QT» modellarini va ularni bog'laydigan geosistema komponentlarining o'zaro ta'sir tenglamalarini birlashtirishdan iborat bo'lib, ular

ushbu submodellarni amalga oshirish jarayonidan olingan. Shunday qilib, «Orol-61+» modeli ikkita blokdan iborat: «Orol-61+» geosistemi tarkibiy qismlarining xarakteristikalarini dinamikasi bloki va tarkibiy qismlarning o'zaro ta'siri bloki.


«Orol-61+» sintezlangan modelini amalga oshirish o'n yilliklardagi qurigan chiziqlar uchun «QT↔O'Q» va «O↔QT» modellarini amalga oshirish natijalarini bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. Shunday qilib, modellashtirish davrining barcha o'n yilliklari uchun geosistemaning umumiy tasviri yaratiladi; shu jumladan OQT ning sho'rlanishining hududiy dinamikasi; O'Q ning UPQ hududiy dinamikasi; butun QT dagi tuzlarning umumiy tarqalishi baholash; QT↔O'Q va O↔QT o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasi. 4.1 jadvalda «Orol-61+» modelini amalga oshirish natijalari, 1970, 1980, ...2020 yillar uchun geosistema holatining umumlashtirilgan, jami holati aks ettirilgan.

1- jadval

	O'lchov birligi		yillar					
			1970	1980	1990	2000	2010	2020
OQT sho'rlanishi	SH.Q	kg/m <sup>2</sup>	4,1	7,3	14,5	26,1	43,8	81,6
	G'.Q	kg/m <sup>2</sup>	3,1	6,8	12,3	17,5	23,6	34,1
UPQ	SH.Q	%	70,2	57,4	47,7	23,3	0,8	0
	G'.Q	%	74,9	58,5	47,8	42,4	7,3	0,2
Suvning sho'rlanishi	SH.Q	g/l	14	18	32	92	220	350
	G'.Q	g/l	14	18	32	63	108	130
OQT dan tuzlarning tarqalishi	mln.tonna.yil		1,8	4,6	11,5	29,1	84,7	128,4
Akvatoriya maydoni	ming.km <sup>2</sup>		59,0	49,0	38,2	25,3	14,2	6,8
OQT maydoni	ming.km <sup>2</sup>		9,9	19,9	30,7	43,6	54,7	62,1
TQ maydoni	ming.km <sup>2</sup>		0,44	1,12	2,38	4,10	6,99	9,77

OQT da tuproqning sho'rlanishi asosan dengiz regressiyasida suvda eriydigan tuzlarning depozitiga bog'liq bo'lib, uning hissi birinchi o'n yillikda 50% dan so'nggi o'n yillikda 90% gacha va o'rtacha 11,6% minerallashtirilgan yer osti suvlaridan tuzlarning kapillyar ko'tarilishiga bog'liq.

O'Q dagi UPQ ning hududiy dinamikasi OQT ning sho'rlanish dinamikasi bilan chambarchas bog'liq. 2020 yilgacha eski qurigan tublarning sho'rlanish darajasi o'simliklarning ijobiy o'sishni keltirib chiqaradi (UPQ 70% ga etadi). Qurish jarayoni vaqtining kamayishi sababli, keying yillarda qurigan qirg'oqda fitotsenozlarning UPQ si keskin no'lgacha kamayadi. (8-rasm).



8. Rasm. OQT ning g'abiy qismida qurish vaqti davridagi UPQ ning dinamikasi

Orolbo'yi mintaqasida shamolning energiya faolligining ma'lum darajada pasayishi bilan ham tuzlarning umumiy tarqalishining o'sishi QT sho'rli va sho'r botqoqlarning ko'payishi, shuningdek TT ni ushlab turadigan O'Q ning UPQ pasayishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari 1961-2020 yillar davomida TT ning dinamikasi to'g'risida aniq raqamli va tahliliy ma'lumotlarni aniqlaydi va taqdim qiladi. Modellashtirish jarayonida ataylab antropogen aralashuvning (Kokaral to'g'oni, suv havzalari, o'rmonzorlar, kollektor-drenaj suvlarining tushishi) yo'qligi taxmin qilingan holda amalga oshirildi, ya'ni model va faktik ma'lumotlarni taqqoslashda tuproqning sho'rlanishi qancha kamaygan, UPQ qay darajada ko'paygan va yuqoridagi ta'sirlar natijasida tuzlarning tarqalishi qanchalik darajada kamayganligi borasida raqamli ma'lumot olish uchun OQT ning tabiiy evolyutsiyasi mexanizmlari o'rganildi.

Uchinchi bo'limda «Orol-61+» modelini amalga oshirish natijalarining amaliy qo'llanilishi, TT ning zaiflashishiga nisbatan OQT ga ijobiy antropogen ta'sirlarning samaradorligini baholash usuli ko'rsatilgan. ATM ga sun'iy suv havzalari – Mo'ynoq, Ribachiy va Jiltirbas, Kokaral to'g'oni va KS-4 kollektorlari qurilishi va o'rmonzorlar ekilishi kiradi. Ma'lumki nam tuproqdan, shuningdek, suv yuzasidan TT sodir bo'lmasligi sababli, Kokaral to'g'oni va kollektorlaridan suvlarning yuborilishi Markaziy Orolni, qisman Tshebasni va katta Orolning Sharqiy qismini oziqlantirib, ular tomonidan sug'orilgan hududlardan tuzlar tarqalishining butunlay oldini oladi.

OQT uchun IAT ning samaradorligini hisoblashning ishlab chiqilgan usuli quyidagicha:

- 1) Har bir hisoblash davri uchun tuproqning sho'rlanish darajasi, UPQ, TT ning yillik hajmi (model hisoblari), IAT, o'rmon plantatsiyalaridagi o'simlik qoplaminig UPQ va ushbu UPQ ga mos ravishda TT ning yillik hajmi aniqlandi;
- 2) Bir xil maydonlardan o'rmonzorlar ekilgan maydonlardan va ular bo'lmagan taqdirda tuzlar tarqalishining (yiliga million tonna) yillik hajmning farqini hisoblash (model ma'lumotlari), bu fitomelioratsiya samaradorligining miqdoriy ifodash imkonini beradi.
- 3) OQT da yaratilgan suv havzalari, Kokaral to'g'oni va kollektor-drenaj suvlarining samaradorligini aniqlash, ularning samaradorligi yuz foiz va ular tomonidan sug'orilgan maydonlardan yillik tuzlar tarqalishining hajmiga (model ma'lumotlari) teng.

Ushbu usulning amalga oshirilishi shuni ko'rsatdiki, masalan, 2019 yilda, o'rmon ekish maydoni 483000 ga teng bo'lganida, OQT dagi tuzlarning umumiy tarqalishi model ma'lumotlariga nisbatan ushbu hududlardan yiliga 16,1 million tonnaga kamaydi. Mo'ynoq, Baliqchi va Jiltirbas suv havzalari, shuningdek, Kokaral to'g'onidan va kollektorlardan chiqayotgan suvlar TT ni kamaytirishi yiliga 5,78 million tonnani tashkil etadi. Xulosa qilib aytganda, OQT dan tuzlar tarqalishini umumiy yiliga 21,88 million tonnaga kamaytiradi, ya'ni amalga oshirilgan tadbirlarsiz biz hozirda Orolbo'yi hududida tuzlarning tarqalishini taxminan 127,48 million tonnagacha yetgan bo'lar edi. «Orol 61+» geosistemasining rivojlanishini baholash uchun to'rtinchi bo'limda 2030 yil modelidan foydalangan holda

prognozlash natijalari keltirilgan. (4.2 jadval). Kirish parametrlari (stsenariylar) olingan regressiya tenglamalari bo'yicha ehtiyotkorlik bilan ekstrapolyatsiya qilingan tendentsiyalar bilan hisoblab chiqilgan.

2 jadval

**«Orol 61+» geotizimining 2030 yil uchun prognozlash ko'rsatkichlari**

«Orol 61+» geotizimi xususiyatlari		Nisbatan ijobiy variant	Maksimal darajadagi salbiy variant
Suv sho'rliigi	SH.Q	370 g/l	460 g/l
	G'.Q	140 g/l	175 g/l
Orol dengizi akvatoriyasi maydoni		6,1 ming.km <sup>2</sup>	5,44 ming.km <sup>2</sup>
Ijobiy antropogen ta'sirlarning maydoni		8,7 ming.km <sup>2</sup>	5,1 ming.km <sup>2</sup>
Orol dengizining qurigan tubi maydoni		62,8 ming.km <sup>2</sup>	63,46 ming.km <sup>2</sup>
Qurigan tubning tuz qoplamalari maydoni		18,9 ming.km <sup>2</sup>	20,7 ming.km <sup>2</sup>
ODQT ning sho'rlanishi		114,8 kg/m <sup>2</sup>	128,6 kg/m <sup>2</sup>
Tuzlarning tarqalishi		94,6 mln.tonna.yil	134,8 mln.tonna.yil
ODQT da UPQ ning o'rtacha kamayishi		37,3% gacha	29,7 % gacha

**“Orol dengizi qurigan tubi dinamikasining tuz parametrlarini miqdoriy baholash”** mavzusidagi dissertatsiya ishi natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

**XULOSALAR**

1. Dengiz suvining sho'rlanishi, tuzlarning tarqalishi va QT ning sho'rlanishi o'rtasidagi o'zaro ta'sirlar, Orol va qurigan tubi geosistemasida tuzlarning qayta taqsimlanishi jarayonlarini barqarorlashtirishga to'sqinlik qiladigan ijobiy va teskari munosabatlarda ifodalanadi.

2. OQT sho'rlanishining asosiy omili dengiz regressiyasi jarayonida suvda eriydigan tuzlarning depoziti hisoblanadi, uning hissasi birinchi o'n yillikda 50% dan oxirgi o'n yillikda 90% gacha o'sadi. Ushbu holatning ta'siri shamol natijasida tuzlar tarqalishining ijobiy dinamikasi hisoblanadi va 1 o'n yillikda yiliga 1,8 million tonnadan so'nggi o'n yillikda yiliga 128,4 million tonnagacha ortgan.

3. OQT da o'simliklarning shakllanishi tuproqning sho'rlanishining oshishiga va tuzlarning tarqalishiga bog'liq. Ushbu hududda fitotsenozlarning UPQ darajasi ortib bormoqda.

4. Modellashtirish natijalariga ko'ra, vaqt o'tishi bilan proektiv qoplamaning tuzlar tarqalishining zaiflashuvida ta'sirining pasayishi OQT dagi tuproqning sho'rlanish darajasining o'sishi tufayli o'simlik qoplamaning pasayishi bilan izohlanadi.

5. «Orol 61+» modelidan foydalangan holda tuzlarning tarqalishini o'z ichiga olgan OQT ga antropogen ta'sirlarning samaradorligini baholashning ishlab chiqilgan metodologiyasi sun'iy ravishda sug'orilgan hududlar tuzlarnng tarqalishini yiliga 5,78 million tonnaga, o'rmonlarni ekish esa tuzlarnng tarqalishini yiliga 16,1 million tonnaga kamaytirishini hisoblash imkonini berdi. Umuman olganda, so'nggi yigirma yil ichida ijobiy antropogen ta'sirlar tuzlarnng tarqalishini 17-20% ga kamaytirgan.

6. Tadqiqot natijalari 1961-2020 yillar davomida Orol geosistemi va qurigan tubining dinamikasi to'g'risida aniq raqamli va tahliliy ma'lumotlarni aniqlaydi va natijasini beradi.

7. Umuman olganda, Orol dengizi va qurigan tubining geosistemi inqiroz sharoitida bo'lgan ekotizimning yorqin namunasidir, **tuz parametrlarini boshqarish** ushbu ekotizim evolyutsiyasining asosiy omili hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/30.04.2021.В.79.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ НАУЧНО-  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

---

**КАРАКАЛПАКСКИЙ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ  
ИНСТИТУТ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК**

**КУБЛАНОВ ЖАЛГАСБАЙ ЖУМАБАЕВИЧ**

**КОЛИЧЕСТВЕННАЯ ОЦЕНКА СОЛЕВОГО ПАРАМЕТРА  
ДИНАМИКИ ОСУШЕННОГО ДНА АРАЛЬСКОГО МОРЯ**

**03.00.10 – Экология**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Нукус -2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2020.4.PhD/B526**

Диссертация выполнена в Каракалпакском НИИ естественных наук ККО АН РУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.aknuk.uz](http://www.aknuk.uz)) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet».

**Научный руководитель:** **Тлеумуратова Бибигуль Сарыбаевна**  
доктор физико-математических наук, старший научный сотрудник

**Официальные оппоненты:** **Ажиев Алишер Бахтибаевич**  
доктор биологических наук (DSc), доцент

**Мурадов Шухрат Одилович**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:** **Хорезмская Академия Маъмуна**

Защита диссертации состоится «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 года в \_\_\_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.04.2021.B.79.01 при Каракалпакском научно-исследовательском институте естественных наук (Адрес: 230100, г. Нукус, Проспект Бердаха, 41, малый конференц-зал института). Тел.: (+99861) 222-17-44, (+99861) 222-96-72, факс: (+99861) 222-17-44, e-mail: [aknuk@mail.uz](mailto:aknuk@mail.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского научно-исследовательского института естественных наук.

Автореферат диссертации разослан: «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023 г.

(реестр протокола рассылки № «\_\_\_\_\_» от «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2023).

**Мамбетуллаева Светлана Мирзамуратовна**  
Председатель Научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.б.н., профессор

**Утемуратова Гулширин Нажиматдиновна**  
Ученый секретарь Научного совета  
по присуждению ученых степеней, PhD б.н.

**Матчанов Азат Таубалдиевич**  
Председатель Научного семинара  
при Научном совете по присуждению  
ученой степени доктора наук, д.б.н. профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Сегодня в мировом масштабе высыхание Аральского моря признано крупнейшим экологическим кризисом современности. Наиболее опасным последствием кризиса является ветровой вынос солей (ВС) с осушенного дна Аральского моря (ОДА), воздействующий на здоровье населения, засоленность почв, растительный покров, а также на климат Приаралья. В этой области исследования связей между осушенным дном Аральского моря, растительным покровом и соленостью воды Аральского моря, имеют важное научно-практическое значение.

В ведущих мировых научно-исследовательских центрах мира ведутся масштабные научно-исследовательские работы, направленные на выявление вредных последствий распространения солей с высохшего дна Аральского моря. В этом направлении особое внимание уделяется изучению систематическое изучение сложных переплетение факторов выноса солей и динамичность геосистемы Арала и осушенного дна, пространственно-временной динамики базисных для ВС гидрохимических и эоловых процессов с применением математического моделирования.

В республике ведутся ширококомасштабные научно-исследовательские работы, направленные на улучшение экологической ситуации в южном Приаралье, изучение различных аспектов распространения солей, использование полученных результатов при разработке мер по улучшению экологической ситуации в южном Приаралье. В стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан<sup>1</sup>, были поставлены задачи по «... создани эффективных механизмов научных и инновационных достижений в практику, предотвращение проблем, влияющих на окружающей среде и генофонд». При этом изучение факторов естественного роста и фитомелиорации растений, количественная оценка эффективности в аспекте ослабления выноса солей положительных техно-антропогенных воздействий таких как, засеянного растительного покрова, Кокаральская плотина, коллекторы и водопропускные трубы искусственно обводняемых водоемов, является экономически востребованной и имеет важное научно-практическое значение.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-4850 от 06.11.2020г. «Об утверждении концепции развития системы лесного хозяйства Республики Узбекистан до 2030 года», Указ Президента Республики Узбекистан от 18.01.2017г. «О Государственной программе развития региона Приаралья на 2017-2021 гг.», Указ Президента Республики Узбекистан от 30.12.2021г. «О мерах по ускорению и дальнейшей эффективной организации охраны деревьев

---

<sup>1</sup>Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан.

в Республике», Постановление Кабинета Министров №31 от 18.01.2022г. «О дополнительных мерах по созданию «зеленого покрова» – защитных лесов на высохшем дне Аральского моря и территории Приаралья», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

**Соответствие темы проводимых в республике научно-исследовательских направлений.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики -V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

**Степень изученности проблемы.** Большой детализированный вклад в изучение засоления постаквальной суши, влияния засоленности почв на фитоценозы, ветрового выноса солей внесен учеными Узбекистана Рафиковым А.А. (1982, 1981), Кабуловым С.К. (1985, 1990), Толкачевой Г.А. (1995,1998, 2000), Тлеумуратовой Б.С. (2004, 2018), Мавляновым Т.Э. (1998), Курбаниязовым А.К. (2017), Адиловым Б.А. (2015) Шомурадовым Х.Ф. (2015), Шеримбетовым С.Г. (2015), Раззаковым Р.М. и Косназаровым К.А. (1987, 1998), Духовным В.А. и др.(2007, 2008), Новицким З.Б. (2007, 2008, 2017, 2018) и многими другими.

